XALQ DEPUTATLARI IZBOSKAN TUMAN KENGASHI
QARORI

2023 - yil 1 - iyun VI-44-37-1-22-K/23 Izboskan tumani hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 10 apreldagi “Ijtimoiy soha obyektlarining isitish tizimlarini davlat-xususiy sherikchilik asosida modernizasiya qilish to‘g‘risida”gi PQ-118-sonli qaroriga asosan loyixa institutlarini tanlab olish haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 10 apreldagi “Ijtimoiy soha obyektlarining isitish tizimlarini davlat-xususiy sherikchilik asosida modernizasiya qilish to‘g‘risida”gi PQ-118 sonli qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 24-moddalariga asosan xalq deputatlari Izboskan tuman Kengashi

QAROR QILADI

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 10 apreldagi “Ijtimoiy soha obyektlarining isitish tizimlarini davlat-xususiy sherikchilik asosida modernizasiya qilish to‘g‘risida”gi PQ-118-sonli qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 10 apreldagi “Ijtimoiy soha obyektlarining isitish tizimlarini davlat-xususiy sherikchilik asosida modernizasiya qilish to‘g‘risida”gi PQ-118-sonli qarorining 5-bandida berilgan topshiriqlarni o’z vaqtida bajarilishini ta’minlash maqsadida, quyidagi loyiha institutlari tumandagi ijtimoiy soha ob’yektlaridagi isitish tizimlarini xatlovdan o‘tkazish va nuqsonlar to‘g‘risidagi dalolatnomalarni rasmiylashtirish uchun ilovaga asosan tanlab olinsin:

- “**Andijon Mega Project**” MCHJ;

- “**Nanoproekt**” MCHJ;

- “**Progress bulding maks**” XK.

3. Joriy yil 1 iyunga qadar jalb qilingan loyiha institutlari tumandagi ijtimoiy soha obyektlarining issiqlik ta’minoti tizimini modernizasiya qilish loyiha-smeta xujjatlarini ishlab chiqib, davlat ekspertizasidan o‘tkazilishini ta’minlasin.

4. Mazkur qaror “Izboskan paxtakor” gazetasida rasmiy e’lon qilinsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

5. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

6. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy isloxotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **S.Ismoilov**

Xalq deputatlari Izboskan tuman
Kengashining
2023 yil 1 iyundagi
VI-44-37-1-22-K/23-son qaroriga
1-ilova

T/R	**Biriktirilgan loyihachi tashkilot nomi**	**Biriktirilgan tashkilotlar**
1	“**Andijon Mega Project**” MCHJ	4-, 6-, 7-, 8-, 10-, 12-, 13-, 14-, 16-, 17-, 22-, 27-, 38-, 39-, 40-, 41-, 43-, 45-, 46-, 8-DIMI.
2	“**Nanoproekt**” MCHJ;	2-, 3-, 9-, 15-, 18-, 20-, 21-, 24-, 25-, 26-, 28-, 29-, 30-, 33-, 34-, 36-, 37-, 42-, 45-, 47-, 49-, 50-, 15-DIMI, BABM.
3	**" Progress bulding maks**” XK.	1-, 5-, 23-, 31-, 44-maktablar, 2-, 3-, 4-, 6-, 8-, 9-, 10-, 11-, 12-, 14-, 16-, 17-, 19-, 20-, 21-, 22-, 23-, 24-, 25-, 27-, 28-, 31-, 34-, 37-, 38-, 39-, 41-, 42-, 43-, 45-, 46-, 50-, 53-davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari, tuman markaziy shifohona, KTMP Poytug, KTMP To’rtko’l bo’limi, KTMP Lug’umbek bo’limi, KTMP Chuvama bo’limi, KTMP SQKD bo’limi, 26-Moygir QOP, 27-Tuyachi OP, 28-Urganji OP, 29-Cho’nbog’ish bo’limi, 30-Do’stlik OP, Yangi hayot OSHP, Qo’g’ay OSHP, Yuqori Chuvama OSHP, Yangiqishloq OSHP, Yangi zamon OSHP, Qumariq OSHP, Abdusamatobod OSHP, Janobod OSHP, Daryo bo’yi OP, SEOM. Madaniyat bo’limi, BO’SM.